

## QASHQAR RUBOB CHOLG'U SOZI HAQIDA

**Imamov Baxrom Baxtiyarovich**  
*Respublika musiqa va san'at kolleji*  
*“Folklor san'ati” kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Musiqa san'ati tushunchasida birinchi tasavvur etiladigani bu kuy, ya'ni ohangdir. Inson turli ifoda vositalari bilan o'z fikrlarini bayon etib, dildagi his tuyg'usi va mulohazasini boshqalarga yetkazuvchidir. Musiqa, kuyning yangrashi, albatta, musiqiy cholg'ular yordamida amalga oshiriladi. Ana shunday cholg'ulardan biri bu qashqar rubobidir. Rubob tarixi uzoq o'tmishlarga borib taqaladi.*

**Kalit so'zlar:** *musiqa, san'at, mahorat, ijrochilik, uslub, tajriba.*

Cholg'u musiqa ijrochilik san'ati o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o'rinn tutadi. O'tmish musiqiy risolalari va yozma manbalari hamda tasviriy san'at yodgorliklarida aks ettirilgan cholg'u sozlar qadim zamonlardan vujudga kelganligi va ularning xalq orasida keng tarqalganligidan ko'rishimiz mumkin. Va albatta davrlar osha ularning birmuncha takomillashganligidan darak beradi.

O'rta asrga oid va undan keyingi davrlarda yaratilgan musiqa risolalarda va ularda ijo etiladigan musiqa asarlari haqida ma'lumotlar talaygina. O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: "Kishi ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg'u sozlar – g'ijjak, rubob, nay va surnaydir; ushbu cholg'ular inson ovozga juda yaqinligini ta'kidlaydi. Qolaversa cholg'u sozlar ashulaga ham jo'r bo'ladi, ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning orasidagi cholg'u qismlarini hosil qiladi". Farobiyning bergen ta'riflari hozirgi davrga qadar saqlanib, va rivojlanib kelmoqda.

XVI- XVII asrlarda yashab ijod etgan buxorolik Najmiddin Kavkabiyy va Darvish Ali Changiy risolalarida ham cholg'u sozlarining mukammal ro'yxati, ularning kelib chiqishi va sozandalar haqida qimmatli ma'lumot berilgan. Darvish Ali Changining o'zi ham rebob (rubob o'sha davrda rebob deb atalgan) chalgan. O'tmishda rubob simlari beshta bo'lganligi, ammo uning to'rtta tori ipakdan va beshinchisi esa kumush sim taqilganlini ko'rish mumkin.


Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida rubob xaqida "Xorazm shohlar davrida usta Mahmud tomonidan yasalgan" ma'lumotlar keltirilgan. Xulasa o'rnida shuni aytish mumkinki, rubob qadimdan Sharq xalqlariga xos cholg'u sozi sifatida, qadrlanib shu kunga qadar xalqning sevimli musiqiy cholg'ulari qatoriga kirgan.

### RUBOBNING TUZILISHI

Rubob cholg'u sozini organish uchun avalo uning tuzulishi bilan tanishib chiqamiz.

1. Bosh qismi: beshta qulogdan iborat sozlash vazifasini bajaradi.
2. Shayton xarrak.
3. Dasta qismi: dasta qismida yigirma to'rt pog'onali tovush katorlaridan iborat.

4. Xarragi.
5. Rubobning baliq terisi bilan qoplangan kosasi.
6. Ilmoqlari va uchta simdan iborat.



### RUBOBNING SOZLANISHI

Rubobning birinchi simi birinchi oktava “Iya” tovushiga sozlanadi.

Rubobning ikkinchi simi birinchi oktava “mi” tovushiga sozlanadi.

Rubobning uchinchi simi kichik oktava “si” tovushiga sozlanadi

### RUBOBNING USHLASH HOLATLARI


Qashqar rubobini o’rganishdagi dastlabki darslar davomida, ko’p yillik nazariy va amaliy izlanishlar, tajribaga tayanib rubob chalishni shakllantirishga ishtirok etadigan uchta muhim tarkibiy qismni ko’rib chiqish tavsiya etiladi:

1. Qashqar rubobining holati (pastanovka)
2. Ovoz chiqarishda vositachining roli. (mediator)
3. Chap va o’ng qo’l texnikasini rivojlantirish. Bularni ko’rib chiqib, shaxsiy amaliy va pedagogik tajribaga asoslangan holda mashqlarni tavsiya etamiz. Qashqar rubobida pastanovka (rubobni to’g’ri ushslash), chalish holatiga siz quyidagilarni bajarishingiz kerak: Ijroni to’g’ri, erkin bajarish uchun, oyoqlaringizni yelkangizning kengligida qo’ying. Yelkalar pastga, bo’shashgan bo’lishi kerak. Aqliy ravishda, asbobsiz, cha qo’lni tirsak qo’shimchasiga bukilgan holda ko’taring, shunda qo’l yelka darajasida bo’ladi. Bunday holda, chap qo’lning barmoqlari yarim doira shaklida egilgan bo’lishi kerak. Rubobning dasta qismi bosh barmog’ining yaqinida, ya’ni ostida bo’lib, dastadan uzoqda bo’lmasligi taklif qilinadi. Tirsakni qo’shimchasida bukilgan o’ng qo’l ijrochining tanasiga bosilmasligi va taxminan 10 sm masofada yoki musht bo’lishi kerak. Bunday holda rubob tanasini ya“ni dastani ushlab turganda uning uchta aloqa nuqtasi borligini tahlil qilish kerak – tirsak, yelka bo’g’imlari va ko’krakning pastki qismiga bosilgan holda bo’lishi kerak. Rubob bilan keyinchalik, ushbu mashqni takrorlashda, Rubobning dastasidagi chap qo’lning holatiga e’tibor berish kerak. Bu mashq talabaning jismoniy xususiyatlari bilan bog’liq bo’lishi kerak, albatta. Bu barcha tayyorgarlik harakatlarini biz Qashqar rubobida chalishning shakllanishdagi dastlabki nashqlari deb atashimiz mumkin bo’ladi. Rubobni to’g’ri tutishning ushbu mahoratini rivojlantirishda o’quvchi-talabaning mushak charchoqlarini pasaytirish muhimdir. Shuning uchun, agar ushbu mashq bir necha marta takrorlanmasa, unda rubob chalishning dastlabki darslari qisqa muddatli bo’lishi mumkin. Yuqoridagi holatlarni inobatga olib dars jarayonida mashq vaqtini shunday taqsimlash kerakki, dam olish daqiqalari ham bo’lsin. Ijro jarayoni mahoratini ongli ravishda shakllantirish

avvalombor, mediator bilan ishlash vazifasini to'g'ri bilish, rubobda tovush chiqarish sifatiga ta'sir qiluvchi bir qator omillarni tahlil qilish kerak. Bunga quyidagilar kiradi: sifat, mediator nimadan yasalganligi, shakli, tovushni rubob simini qayerdan chiqarilishi, mediatoryni to'g'ri tutilishi, harakat tezligining rivojlanishi, uni qaysi burchagidan tovush chiqarishni bilish kiradi.

### MEZROB

Rubob torlarini chertib sadonlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi.



### NOTALARNING BO'LINISHI.

Rubob cholg'u sozini o'rganayotgan o'quvchilarga shuni aytib o'tishimiz kerakki, notalar bilan birgalikda o'zlashtirib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Notalarning cho'zimi:

- – Butun nota 4 i ga sanaladi
- – Yarim nota 2 i ga sanaladi
- – Chorak nota 1 i ga sanaladi
- ● – Nim chorak nota 2 tasi 1 i ga sanaladi
- ● ● ● – 16 talik nota 4 tasi 1 i ga sanaladi

### ZARBLAR HAQIDA

Birinchi zarb mezobni yuqoridan pastga yo'naltiramiz.

Ikkinci zarb mezobni pastdan yuqoriga yo'naltiramiz.

Endi ikkita zARBni qo'shib ijro qilamiz.

### TREMOLA HAQIDA

Musiqaga tilida tremola atamasi mavjud. Zarblarning pastga xamda yuqoriga tez va tekkis almashib chalish usuli tremola ya'ni rez deb ataladi. Tremolalarni o'zlashtirish uchun quyidagi mashqlarni bajarish lozim bo'ladi.

### NOTALARNING NOMLANISHI

Musiqada yettita nota bor. Ular: do, re, mi, fa, sol, lya, si.

Alteratsiya belgilari

Diez tovushni yarim ton ko'taradi

Bemol tovushni yarim ton pasaytiradi

Xulosa qilib aytganimizda, qashqar rubobini chalishdagi boshlang'ich darslarni o'rghanishimiz va uning kamchiliklarini o'rganib chiqishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abu Nasr Forobi. Risolalar. Katta musiqa kitobidan. Toshkent, 1975.
2. Feoktist Nikiforovich Vasilyev. Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi. Toshkent, 1978.